

FRANSUZ VA O'ZBEK TILIDAGI SUBKOLLOKVIAL
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TURLARI

Madinabonu Vohidova - O'zMU magistranti

Tel: (90) 3280916

Sultoncha545@gmail.com

Annotatsiya: fransuz va o'zbek tillaridagi subkollokvial frazeologik birliklarining kundalik, emotsional, ijtimoiy davlat, intellektual sohalari haqida tushuncha berishga bag'ishlangan bo'lib, har bir sohaga alohida to'xtalib o'tiladi.

Аннотация: данная статья посвящена осмыслению бытового, эмоционального, социального состояния и интеллектуального направлений субколлоквиальных фразеологизмов французского и узбекского языков, причем каждое направление рассматривается отдельно.

Annotation: this article is dedicated to understanding the everyday, emotional, social state, and intellectual areas of subcolloquial phraseological units in French and Uzbek languages, and each area is discussed separately.

Kalit so'zlar: Subkollokvial, frazeologik birlik, kundalik soha, emotsional soha, ijtimoiy davlat sohasi, intellektual soha, semantik soha.

Ключевые слова: Подразговорный, фразеологизм, бытовая сфера, эмоциональная сфера, социально-государственная сфера, интеллектуальная сфера, смысловая сфера.

Key words: Subcolloquial, phraseological unit, everyday sphere, emotional sphere, social state sphere, intellectual sphere, semantic sphere.

Tilshunoslikda subkollokvial frazeologik birliklarni 4 ta sohaga bo'lish mumkin. Bularga quidagilar kiradi:

1. Kundalik
2. Emotsional
3. Ijtimoiy davlat
4. Intellektual

Mazkur subkollokvial frazeologik birliklarning bo'linishini E.M.Beregovskayaning fransuz jargonini tahlil qilishga bag'ishlangan ishida ko'rish mumkin. Taqqoslangan tillardagi subkollokvial frazeologik birliklarning aksariyati "kundalik" sohaga tegishliligi tabiiydir, chunki bu frazeologik qatlam to'g'ridan-to'g'ri xalq mahsuloti bo'lgan, umumiy tan olingan kundalik yo'nalishga ega. O'rganilayotgan tillarda katta semantik sohalari bir-biriga to'g'ri keladi, ammo ularning ichki kichikroq tematik guruhlarga bo'linishi har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Fransuz va o'zbek tillaridagi milliy-madaniy o'ziga xoslik tematik jihatdan

subkollokvial frazeologiyani subkollokvial frazeologik birlikning tematik to'plamida emas, balki "markaziy-periferiya" o'qida, tematik ustunlikda va ularning aniq distributorlarining tarqalishida deb hisoblaydi. Fransuz tilida "kundalik" semantik sohasi ko'proq ahamiyat kasb etib, mazkur tur og'zaki nutqda ko'p ishlatiladi. Masalan: "Ichkilik/ickilikbozlik", "Tana", "Inson va uning harakteri", "pul", "Oziq-ovqat mahsulotlari/oziq-ovqat yetishmasligi/ochlik", "Jang/qirg'in", "harakat", "o'lim", "Muhabbat/ishqiy munosabatlar", "aldash/firibgarlik", "bekorchilik/behuda gaplar". O'zbek tilida: "inson va uning xarakteri", "ichkilik/ichkilikbozlik", "pul/boylik/kambag'allik/pul munosabatlari", "tana", "jang/qirg'in", "harakat", "Janjal/tanbeh/tanqid", "aldash/firibgarlik", "O'lim" kabi mavzular.

O'zbek tilida "do'stlik" "Majburlash", "Qaramli", "Miqdorni ifodalash" guruhleri o'ziga xosdir. Qiziqarli tomoni shundaki, dunyo manzarasining subkollokvial qiymatini bir nechta tushunchalarning asosiy mezonlar, miqdor ifodasi hisoblanadi, ayniqsa "Spirtli ichimliklar" hamda "Oziq-ovqat".

Fransuz tilida esa "hokimiyat namoyondalari", Tabiat hodisalari" va inson tanasining turli xil aspektlarini hamda u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'rganuvchi ko'plab guruhlar hisoblanadi.

Semantik sohada "Emotsional" subkollokvial frazeologik birliklar his tuyg'ularni ifodalash va so'zlovchining emotsiyasi bilan hayotiy bog'liq. Nomoyondakorlik frazeologik birliklarda turlicha bo'ladi, norozilik bildirish - "*se mettre en petard*", kimnidur yoki nimanidur lanatlash (uch martalab), norozilik - "*faire la bobo*", seni portlatish uchun, yani o'zbek tilidagi *jin ursin* FBga to'g'ri keladi; G'azab: "*Piquer la rogne*" - jahannamga ravona bo'l; bezovtalik: *avoir mangé de l'oseille*¹ - asabiga tegish; joniga tegish: *les briser à qn, faire chier* - ko'zni shamg'alat qilish; e'tiborsizlik: *je m'enfiche et je m'en conteflche!* - bilan ko'cha kezmoq;

Shuni aytilish kerakki, o'zbek tilida "emotsional" subkollokvial frazeologik birlik axloqsiz his tuyg'ular, emotsionalliklar bilan bir qatorda yaxshi xulq atvorni ham bir xil ifodalaydi. Uning yana bir farqi esa dialektik qarama-qarshilikdir. "emotsional" frazeologik jamlanma sohasini o'rganib chiqish mobaybida, bizga quyidagi teskari emotsiyalar jamlanmasi namoyon bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- a) g'azab, noroziliklar: *g'azabdan yorilib ketdi*;
- b) nafrat, e'tiborsizlik, norozilik: *tumshug'ni ko'taring*.

Quyidagi subkollokvial frazeologik birliklar aniq holatlar va ularning ishlatilishiga bog'liq, ikki qutbiy hislarni ifodalashi mumkin. "Hayrat - bezovtalik": *jin ursin, lanati*.

Fransuz tili subkollokviallik sohasida asosiysi "emotsionallikdir":

- a) his-hayajonli tovush frazeologizmlari mahsus bo'lim bo'lib, ular til namoyondalarining hotirasida aniq harakatlar bilan qo'shilib yoki ular hamrohligida

¹ <https://www.languefrancaise.net/Bob/18276>

keladi: *mon oeil* – so’zlovchining aytgan gapiga ishonmaslikni bildiradi, bunda pastki qovoqlar ko’rsatgich barmoqlar yordamida biroz pastga tortiladi.

b) vaziyatdan kelib chiquvchi holatlar – “frazerefleklar” deb ataladi. Masalan: “*baisse ton capot, on voit le moteur*²” – kalta yubka kiyuvchi ayollarga qarata aytilgan ibora hisoblanadi. Asosiy fransuz tilidagi subkollokvial frazeologik birliklar o’zlarining qofiyaviy xususiyatiga ega hisoblanadi. Asosiy gapning qofiyalanishi qofiya ilmiga xizmat qilishdan boshqa hech qanday funksiyani bajarmaydi: *cool, Raoul!* (hotirjamlik), *je vous en donne en mille, Emile* (baxs boylash).

Shunday qilib, semantik subkollokvial birliklar sohasida “emotsionallik”, o’rganilayotgan tillarda birinchi novbatda ijobiy hissiyot va emotsiyalar ustidan teskari hissiyotlarning ustunligini ko’rsatadi, ikkinchi o’rinda esa, quyidagi semantik guruhlarda ma’no bildiruvchi qism argotik ritorikaga xos frazeologik birliklarning periferik shakllari: shtamplar, mashhur iboralar shu kabi murojaatda ibora refleklari shug’ullanadi. Biz unda har bir ob’ekt hodisa, his-tuyg’u, qadriyatlar miqyosida ma’lum bir o’rinni egallaydigan argotic dunyoqarashning ko’rinishlaridan birini ko’ramiz.

Subkollokvial frazeologiya sohasida “ijtimoiy-davlat” semantik sohasi har ikkala tilda nisbatan kam va turli xilligi bilan farqlanmaydi. Bu haqiqat ijtimoiy-davlat tematikasi subkollokvial lug’atida mavjud emasligini ammo qanday kuzatuv olib borishni, uning asosiy qismi frazeologik ko’rinishda emas leksik ko’rinishda qanday namoyon bo’lishini bildirmaydi. Bu yerda “armiya” tushunchasi “ijtimoiy farqlanish”, “ko’p millatli mavzu” ko’rinishida o’z ifodasini topadi: *marchand de mort* subite, “armiyadan ketish”

“Aqliy” semantik sohaga “tushunish”, “o’ylash”, “fikrlash”, “aqliy salohiyat” tematik guruhlari taaluqlidir. Subkollokviallik lug’atida o’y-fikrlar ustidan asosli harakatlar ustunlik qiliadi. Har ikkala tillarda ham “aqliy” semantik soha son jihatdan “kundalik” hamda “emotsionallik” semantic sohalariga qarahanda kamroq. Agar fransuz va o’zbek tillardidagi “Aqliy” semantik sohalarni o’zaro bir-biri bilan taqqoslaydigan bo’lsak, o’zbek tilida ikki marta ko’proq frazeologik birliklar mavjud. Shuningdek, ko’rilayotgan tillardagi semantik sohalarda sifat munosabatlaridagi o’xshashlik ham farqlanadi. Agar fransuz tilidagi e’tiborni aqliy qobiliyatlarni yo’qotish faktiga e’tibor qaratsak: “Aqldan ozish”, “tebranish”: *travailler du bigoudi*, o’zbek tilida shaxsiy aqliy harakat ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Frazeologik sionimlarda biz frazeologik birliklarni, bir obyektning harakatini va bir qator sinflarga tegishlilikini tushunamiz. Subkollokvial sinonimlarning boyligining sabablari bir nechta, birinchi qatlamning sababi mafkuraviy xarakterda namoyon bo’ladi.

² <https://www.expressions-francaises.fr/baisse-le-capot-on-voit-le-moteur/>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В.И.Даль «Сокровищница народной мудрости». Даль.В.И. «Пословицы русского народа» М-1957 -С. 3-5.
2. А.Н.Пермяков. «Избранные пословицы и поговорки народов востока» М-1958., -С. 376 .
3. А.Н.Пермяков «Пословицы народов востока» - С. 9.
4. Maloux.M. Dictionnaire des proverbes, sentence et maximes. Paris, Larousse-Bordas. 1998.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. З.М.Маъруфов таҳрири остида. М. Рус тили нашриёти 1981. 6.52.

INTERNET SAYTLARI

1. <https://www.languefrancaise.net/Bob/18276>
2. <https://www.expressions-francaises.fr/baisse-le-capot-on-voit-le-moteur/>